



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 4-oktabr

501-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son qarori ijrosi haqida”gi 451-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-sentyabrdagi 451-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-sentyabrdagi 451-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son qarori bilan:

2025-yil 1-yanvardan boshlab turizmning quyidagi yangi turlari joriy qilinganligi:

mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi sanoat turizmi;

oltin, ruda va boshqa mineral resurslar qazib oluvchi konlar, shaxtalar, faoliyat yuritmayotgan geologik obyektlarida texnologik jarayonlarni, shu jumladan, tog‘ jinslarini portlatish tadbirlarini bexatar masofadan kuzatish, mutaxassislar bilan muloqot qilish, tog‘ relyeflari bo‘yicha ekskursiyalarni tashkil qilishni nazarda tutuvchi geologiya turizmi;

ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, observatoriyalar hamda planetariylar, Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi ilmiy turizm;

harbiy tarix va faoliyat bilan bog‘liq joylarga tashrif buyurish, yodgorliklar va tadbirlarda qatnashish, harbiy xizmatchilar hayoti va sharoitlari bilan yaqindan tanishish, hududlarda turistlarga o‘q otish bo‘yicha pulli xizmatlar tashkil qilishni nazarda tutuvchi harbiy turizm;

mamlakatning siyosiy hayoti, davlat organlari va tashkilotlarining tarixi va faoliyatini aks ettiruvchi joylarga, xususan, Hukumat bino va inshootlariga tashrif buyurishni o'z ichiga olgan davlat-boshqaruv turizmi;

Turizmning yangi turlarini joriy etishga, shu jumladan, obyektlar ro'yxatini shakllantirish, ularga kirish-chiqish tartibini ishlab chiqish, ularda pulli va bepul ko'rsatiladigan xizmatlarni belgilash, tushayotgan mablag'lardan samarali foydalanishga quyidagilar mas'ul etib belgilanganligi;

sanoat turizmi bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi;

geologiya turizmi bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi;

ilmiy turizm bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Fanlar Akademiyasi;

harbiy turizm bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;

davlat-boshqaruv turizmi bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab mahalliy va xorijiy turistlarga quyidagi xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilganligi:

“G'alaba bog'i” yodgorlik majmuasi, “Shon sharaf”, “Qurolli Kuchlar” davlat muzeylari va hududlardagi “Vatanparvarlar” bog'larida harbiy texnika va qurol-aslahalar bilan bevosita tanishtirish;

Mudofaa vazirligining Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi Qibray sport majmuasi bazasida “Stendli otish” va o'qotar qurollardan otishni pulli asosida yo'lga qo'yish;

2025-yil 1-oktyabrdan boshlab ichki turizm infratuzilmasi bo'yicha aholi hamda turistlarning xabardorligini ta'minlash imkonini beruvchi, shuningdek quyidagi texnik imkoniyatlarni nazarda tutuvchi “Tourist map” interaktiv portali sinov tariqasida Samarqand shahrining xalqaro aeroportida ishga tushirilishi;

aeroport, temir yo'l vokzallari, avtovokzallar, tarixiy, madaniy, ko'ngilochar, ovqatlanish va shu kabi joylar hamda ularga yetib borish marshrutlari haqida ma'lumot taqdim etish;

aholi va turistlarning sayohat qilish muddati va qiziqishidan kelib chiqib, sayohat rejasini tuzib berish va matritsali shtrix kod (QR-kod) orqali mobil qurilmasiga o'tkazib olish imkoniyatini yaratish;

turistlar oqimi yuqori bo'lgan davlatlar tillarida axborot berish hamda tegishli hududning xaritasini namoyish etib borish;

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1053-son qarori bilan 2020-2021-yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish va “Oltin halqa” turizm konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi e'tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 30-sentyabrdagi 451-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Viloyat turizm boshqarmasi (O.Rasulov) manfaatdor boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentabrdagi 582-son qarori talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi boshlig‘i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**